

POLIZ EKINLARINING IXTISOSLASHGAN SHIRA TURLARI VA ZARAR KELTIRISH XUSUSIYATLARI.

Шамуратов Куралбай Турдибаевич, Жумамуратова Дилбар Женисбаевна

Қорақалпоғистон деҳқончилик илмий-тадқиқот институти

Телефон: +99890.653.80.28 E-mail: kkniiz@bk.ru

Аннотация: Мазкур мақолада полиз экинлари биоценозида учрайдиган асосий иккиқанотлилар (Diptera) гуруҳига мансуб зарарли турларга қарши турли кимёвий препаратларнинг биологик фойдалилиги ўрганилди. Тадқиқотлар Қорақалпоғистон Республикаси шароитида амалга оширилиб, полиз экинларининг ўсиш даврида иккиқанотлилар популяцияси таркиби, зичлиги ва уларнинг зарар етказиш даражаси таҳлил қилинди. Синовда қўлланилган инсектицидларнинг самарадорлиги, таъсир доираси ва биологик фойдалилик кўрсаткичлари аниқланди.

Abstract: This article studies the biological effectiveness of various chemical preparations against harmful species belonging to the main group of Dipteral (Dipteral) found in the biogenesis of melon crops. The research was carried out in the conditions of the Republic of Karakalpakstan, and the composition, density and degree of damage of dipteran populations during the growth period of melon crops were analyzed. The effectiveness, range of action and biological effectiveness indicators of the insecticides used in the test were determined. According to the results, it was found that some modern chemical preparations significantly reduced the number of pests and had a relatively stable ecological effect.

Калит сўзлар: полиз экинлари, иккиқанотлилар (Diptera), биоценоз, инсектицидлар, биологик фойдалилик, зараркунандаларга қарши кураш.

Key words: melons, dipteral, biogenesis, insecticides, biological value, pest control.

Poliz ekinlarida rivojlanadigan so'ruvchi zararkunandalardan shiralarning biotopdagi ahamiyati katta hisoblanadi. Sababi bularga o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari mavjud shira populyatsiyalarida 2 shakli mavjud bo'ladi. Biri qanotli bo'lib, ularning maqsadi zotni dala bo'ylab tarqatish bo'lsa, ikkinchisi-qanotsiz, tirik tug'uvchi urg'ochilari bo'lib, qulay sharoitda avlodlarini tez ko'payib ketishini ta'minlaydi. Shiralarning populyatsiyalarida vegetatsiya oxirida erkak va urg'ochi zotlar paydo bo'lib, urchib tuxum qo'yish va shu shaklda qishlab qolish ko'pchilik turlarga xosdir.

Poliz ekinlari vegetativ tanalari er betiga to'shalib o'sishi tufayli, tuproqning ustki qatlamida o'ziga xos bo'lgan mikroiklim paydo qilishi va o'simlik tanasidagi ozuqa

moddalarning har xil bo'lishi tufayli ko'plab qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalarining to'planishiga asosiy sabab bo'lishi, mazkur biosenozda bir nechta bo'g'inoyoqlilarning paydo bo'lib oziqlanish zanjiriga birikishiga sabab bo'lishi aniqlangan.

So'ruvchi zararkunanda turlarining rivojlanish biologiyasidagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri-ular tarqalgan areallarning tez kengayishi va keltiradigan zararning ortishidir. Sababi, zararkunanda turlarining biologik rivojlanish sharoiti ushbu hudud abiotik omillariga to'la moslashgan holda rivojlanib, erta bahordan boshlab dalada qishlab chiqqan avlodlari paydo bo'lishidadir

Olib borilgan kuzatuvlar natijalarida, shiralar turlarining bioekologik rivojlanish sharoiti bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari mavjud. O'simlik bilan oziqlanishda to'qimadagi shiralarni so'rishi tufayli, o'simlik poya va ildizlardagi zaxira ozuqalar miqdori kamayadi. Bunday shaklda zararlangan o'simliklarda fotosintez jarayonlari buzilib, barglarning shakli o'zgaradi, uning o'sish va rivojlanish xususiyatlari sust o'tib, hosil me'yori va sifati kamayib ketishiga olib keladi.

Shiralar to'da hosil qilib yashashi tufayli, keltiradigan zarari tez seziladi va o'simliklarning kelgusi fazalari shakllanmasdan qolishi kuzatuvlarimizdan ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, shiralarning ikkinchi darajali keltiradigan zarari ham biroz xavfli bo'lib, oziqlanayotgan shiralar tanasidan chiqargan shirali suyuqliklari bilan barglarni, mevani to'la ifloslaydi. Bunday joylarda zararli zamburug'lar rivojlanib, barglarning fiziologik xususiyatlarini to'la izdan chiqaradi. Bundan tashqari, o'simlikning o'suv nuqtalariga to'planishi va ozuqalarini so'rib olishi tufayli, o'simlikda yangi barglar paydo bo'ladi, maysalarda modda almashuvi buzilib, to'la nobud bo'lishi ham kuzatiladi.

Ko'rinib turganidek, poliz ekinlarida paydo bo'lgan shiralarga qarshi kurash tadbirlarini tashkillashtirmasdan o'simliklarga keltiradigan zararni bartaraf etib bo'lmaydi. Chunki, poliz ekinlari turlari dalalarida mavjud bo'lgan qulay mikroiklim natijasida shiralar paydo bo'lib, soni ko'payib ketishi tufayli har yili olinishi kutilayotgan hosil ozayib bormoqda. Natijada zararkunanda sonini kamaytirish uchun dalada 4-6 martagacha kimyoviy preparatlar ishlatish talab etilishiga qaramasdan kutilgan samara bermayotganligi kuzatilmoqda.

Qoraqalpog'iston sharoitida mavjud muammoni ilmiy asoslangan tajribalar asosida bartaraf etish uchun ekilayotgan poliz ekinlari turlari, dalada bo'ladigan agroiklim sharoitlari, salbiy va ijobiy ta'sir etadigan abiotik, biotik omillar hisobga olinib, kuzatuvlar, ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Qoraqalpog'iston agroiklim sharoitlarida agrobiosenozlarda shiralarning bir nechta turi tarqalib, bular orasida: poliz shirasi, o'rik-qamish shirasining tarqalgan areallari keng bo'lib, sabzavot-poliz ekinlarining asosiy zararkunandasi sifatida dalada maxsus qarshi kurash tadbirlarini olib borish tavsiya etildi.

Mayjud muammoning ilmiy asoslangan echimini topish uchun Qoraqalpog‘iston hududi janubiy tumanida poliz ekinlari dalalarida tarqalgan shiralarning turini, rivojlanish sharoitlarini, dinamikasini aniqlash uchun har yili kuzatuvlar olib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ergashev Mirodil Maxamadovich, Ortiqov Umid Doniyorovich G‘o‘za maydonidagi o‘simlik bitlariga qarshi kurashda oltinko‘z entomofagni samaradorligi Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini – 2023. – B. 2-3.
2. Eshmuratov E.G., Torenliyazov T.E. Bioecological development of fruit trees and vegetable plant insects //Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. I Международная научно-практическая интернет-конференция, 29-февраля, – Солёное Займище, 2016. –С. 1714-1716.
3. Юсупов Р.О. Полиз экинларини қовун пашша зараркунандасидан ҳимоя қилиш //Ж. Агро илм, –Тошкент, 2016. -№4 (42). –Б. -65
4. Юсупов Р.О. Қовун пашшасининг биологияси, зарари ва унга қарши кураш тадбирларини ишлаб чиқиш//Қ.х фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2018. –Б. 5-11.
5. Юсупов Р.О. Қовун пашшасига қарши инсектицидларни ишла-тишнинг самарадорлиги/«Интенсив бағлар, сабзавот-палыз егинлерин зыянкес хэм кеселликлерден интеграциялық корғаў» атамасындағы Респ. ил. хэм илимий-өндириллик конф. мат. –Нөкис, 2018. –Б. 105-107.